Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

TARJIMANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TEXNOLOGIYALARI

03 October 2026

UDK 81’25

INGLIZ TILIDAGI TED NUTQLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH: LISONIY MUAMMOLAR VA TARJIMA

Feruza Shukrullo qizi Mansurova*

Andijon davlat universiteti (ADU)

✉ feruzamansurova1994@gmail.com

ANNOTATSIYA

Annotatsiya. Ingliz tilidagi TED nutqlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda asl matnning mazmuniy aniqligini saqlash bilan birga, uning obrazli ifodasi, nutqiy ohangi va tinglovchiga ta’sirini qayta bera olish tarjimon oldiga bir qator lisoniy masalalarni qo‘yadi. Ushbu tezisda terminologik birliklar, metaforik-obrazli ifodalar, kollokatsiyalar, pragmatik-ritorik vositalar hamda kontekstga bog‘liq ma’nolarning tarjimada berilishi B. Geytsning “The Next Outbreak? We’re Not Ready” TED nutqi asosida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida inglizcha birlikning lug‘aviy muqobilini tanlash har doim ham tabiiy o‘zbekcha ifodani yuzaga keltirmasligi e’tiborga olinib, asl nutqning ilmiy mazmuni bilan uning jonli bayon uslubini uyg‘un holda saqlashga xizmat qiladigan tarjima yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar

Kalit so‘zlar: TED nutqi, tarjima, lisoniy muammo, tarjima yechimi, terminologik birlik, kollokatsiya, metafora, pragmatik ma’no, kommunikativ ta’sir.

DOI: 10.5281/zenodo.23278721

Kirish

Ilmiy bilim va ijtimoiy tajriba milliy chegaralardan chiqib, turli tillarda so‘zlashuvchi auditoriyaga tobora tez yetib borayotgan bugungi axborot muhitida TED nutqlari murakkab ilmiy, texnologik hamda ijtimoiy masalalarni keng ommaga tushunarli shaklda yetkazishning ta’sirchan vositalaridan biriga aylangan. Bunday chiqishlarda ma’ruzachi muayyan ilmiy xulosani bayon etish bilangina kifoyalanmay, uni tinglovchining hayotiy tajribasiga yaqinlashtirishga intilar ekan, obrazli qiyoslar, metaforalar, ritorik murojaatlar, takrorlar, pauza va ayrim hollarda yumordan foydalanadiki, natijada axborot tinglovchiga nafaqat mazmun, balki muayyan hissiy va pragmatik ohang bilan yetib boradi. Shu bois TED nutqini boshqa tilga o‘girishda “nima aytilgan?” degan savol bilan bir qatorda “bu fikr qanday aytilgan va tinglovchida qanday munosabat uyg‘otishi ko‘zlangan?” degan masalani ham nazardan qochirmaslik lozim. Ma’lumki, tarjimada ekvivalentlik ikki tildagi alohida so‘zlarning lug‘aviy jihatdan bir-biriga mos kelishi bilangina belgilanmaydi, chunki so‘z gap tarkibiga kirgach, uning ma’nosi grammatik qurilish, yonidagi birliklar, nutq vaziyati hamda so‘zlovchining ko‘zlagan maqsadi bilan birga shakllanadi. M. Beyker so‘z darajasidagi ekvivalentlikdan tortib pragmatik ekvivalentlikkacha bo‘lgan masalalarni izchil tahlil qilar ekan, kontekst va implikaturaning tarjima qaroriga ta’sirini alohida qayd etadi.[1] Bu qarash TED nutqlariga tatbiq etilganda yanada ravshanlashadi, negaki jonli chiqishda ayrim jumlalarning asl mohiyati ularning lug‘aviy tarkibidagina emas, balki qaysi vaziyatda aytilgani, undan oldin qanday fikr kelgani va ma’ruzachi auditoriyani qaysi xulosaga yetaklayotganida ham namoyon bo‘ladi.


Materiallar va usullar

Ushbu tezis uchun tadqiqot materiali sifatida B. Geytsning 2015-yilda TED sahnasida taqdim etilgan **“The Next Outbreak? We’re Not Ready”** nutqi tanlandi.[2] Muallif Ebola epidemiyasidan chiqarilgan saboqlar asosida dunyoning kelajakdagi yuqumli kasalliklarga qay darajada tayyor ekanini muhokama qilar ekan, tibbiyot va epidemiologiyaga oid tushunchalarni kundalik hayotdan olingan qiyoslar, harbiy sohaga oid obrazlar hamda sodda izohlar bilan yonma-yon qo‘llaydi. Natijada ilmiy mazmun bilan jonli ommaviy nutq bir matn doirasida tutashib, terminologik aniqlikni saqlash, metaforik mazmunni o‘zbek tilida tabiiy berish hamda ma’ruzachining auditoriyaga ta’sir etish usulini tarjimada qayta yaratish kabi bir necha masalani ayni bir material asosida kuzatish mumkin.

Natija va muhokama

B. Geyts epidemiyaga qarshi tayyorgarlik haqida fikr yuritar ekan, **“We’ve invested very little in a system to stop an epidemic”** deya ta’kidlaydi. Ushbu jumlani “Biz epidemiyani to‘xtatish tizimiga juda kam mablag‘ sarflaganmiz” shaklida tarjima qilish grammatik jihatdan e’tiroz tug‘dirmasa-da, *invest* fe’lining shu o‘rindagi ma’nosi faqat moliyaviy mablag‘ bilan chegaralanmaydi, negaki muallif butun nutq davomida tibbiy infratuzilma, mutaxassislar, ilmiy tadqiqot va tashkiliy tayyorgarlikni bir butun tizim sifatida nazarda tutadi. Shu sababli **“Biz epidemiyaning oldini olishga xizmat qiladigan tizimni shakllantirish uchun yetarli mablag‘ va imkoniyat safarbar etmaganmiz”** tarzidagi tarjima jumlaning kengroq kontekstiga yaqinroq keladi, zero, bunda asl fe’lning lug‘aviy shakli emas, muallif unga yuklagan mazmun tarjimada yetakchi o‘ringa chiqadi. Nutq davomida epidemiyaga qarshi tayyorgarlik harbiy xavfsizlik tajribasi bilan muntazam qiyoslanishi ham tasodifiy emas, zero, muallif tinglovchiga murakkab epidemiologik tizimni tushuntirish uchun unga avvaldan tanish bo‘lgan boshqa bir tajriba maydoniga murojaat qiladi. B. Geyts qo‘llagan *war, soldiers, reserves, war games* kabi birliklar alohida-alohida qaralganda harbiy sohaga mansub oddiy so‘zlar bo‘lib ko‘rinsada, ular birgalikda epidemiyaga qarshi kurashni oldindan tayyorgarlik, mashq va safarbarlikni talab qiladigan jarayon sifatida tasavvur ettiradi. P. Nyumark metafora tarjimasida obrazni saqlash yoki uni maqsad tilidagi boshqa ifoda bilan berish masalasini matn va vaziyatga bog‘liq holda hal qilish lozimligini qayd etadi.[3] Binobarin, mazkur nutqdagi harbiy obrazlarni o‘zbekchalashtirishda ularning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, butun nutq bo‘ylab shakllanib borayotgan qiyosiy manzaradagi vazifasini ham hisobga olish talab etiladi. Bu holatni B. Geytsning **“We need strong health systems in poor countries”** jumlasida ham ko‘rish mumkin. *Strong health systems* birikmasini “kuchli sog‘liqni saqlash tizimlari” deb bevosita o‘girish inglizcha tuzilishga yaqin bo‘lsa-da, o‘zbek ilmiy nutqida “barqaror sog‘liqni saqlash tizimi” yoki “samarali faoliyat yuritadigan sog‘liqni saqlash tizimi” shakllari mazmunga tabiiyroq singadi. Negaki ingliz tilidagi *strong* sifatining semantik doirasi keng bo‘lib, uning o‘zbekchadagi muqobili ot bilan qanday birikayotganiga qarab o‘zgaradi; shu sababli tarjimon alohida so‘zga muqobil izlashdan avval butun birikmaning ma’nosiga e’tibor qaratishi lozim. M. Beykerning so‘zdan yuqori darajadagi ekvivalentlik va kollokatsiyalar haqidagi mulohazalari ham tarjimada aynan shunday munosabatlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.[4] B. Geyts nutqida *epidemic, virus, vaccine, diagnosis, health worker, public health system* singari sohaga oid birliklar tez-tez uchrasa-da, ma’ruzachi ularning ilmiy mohiyatini saqlagan holda mazmunini keng auditoriyaga tushunarli, sodda va ravon nutq orqali yetkazadi. Tarjimada ham shu nisbat buzilmasligi kerak, zero, terminning o‘zbek tilidagi aniq muqobilini topish ilmiy mazmunni saqlasa, uning atrofidagi jumlalarni ortiqcha kitobiylashtirish TED chiqishiga xos jonli ohangni susaytiradi. Boshqacha aytganda, tarjimon terminologik aniqlikni saqlashga intilar ekan, ma’ruzachi mutaxassislar yig‘inida emas, turli bilim va tajribaga ega tinglovchilar qarshisida so‘zlayotganini ham hisobga olishi zarur.

Tanlangan nutqning to‘liq transkripti tarjimada alohida yondashuv talab qiladigan birliklar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilganda, terminologik vositalar bilan bir qatorda metaforik-obrazli ifodalar, pragmatik-ritorik qurilmalar, kontekstual-madaniy birliklar hamda yumor bilan bog‘liq holatlar ham uchrashi kuzatildi. Bunda ayrim birliklar bir necha xususiyatni bir vaqtning o‘zida namoyon qilgan bo‘lsa-da, ularning nutqdagi yetakchi vazifasi asos qilib olindiki, bu tarjimada qaysi lisoniy qatlam ko‘proq e’tibor talab qilishini qiyosiy kuzatishga asos bo‘ldi.[5]



1-rasm. B. Geytsning “The Next Outbreak? We’re Not Ready” TED nutqida tarjimada alohida yondashuv talab qiladigan birliklarning miqdoriy taqsimoti

Diagrammadagi nisbatlardan anglashiladiki, terminologik birliklarning boshqa guruhlarga nisbatan faol-roq uchrashi, avvalo, nutqning epidemiologiya va sog‘liqni saqlash masalalariga bag‘ishlangani bilan bog‘liq bo‘lsa, pragmatik-ritorik vositalarning salmoqli o‘rin egallashi ma’ruzachining ilmiy ma’lumotni quruq fakt sifatida keltirmay, tinglovchini muammo ustida fikrlashga undashga intilishi bilan izohlanadi. Metaforik-obrazli birliklar esa murakkab ilmiy tushunchalarni tanish tasavvurlar orqali ochishga xizmat qilgan bo‘lib, kontekstual-madaniy birliklar hamda yumorga asoslangan ifodalar miqdoran kamroq uchrasa-da, ularni o‘zbek tiliga o‘girishda tinglovchining fon bilimlari va nutq vaziyatini hisobga olish talab etiladi. TED materiallarini tar-jima qilishda transkript bilan cheklanib qolmasdan, nutqning audiovizual shakliga ham murojaat qilish ayniqsa foydalidir, negaki yozma matnda so‘zlar saqlangan bo‘lsa-da, ma’ruzachining mantiqiy urg‘usi, pauzasi, ovoz sur’ati hamda auditoriyaning reaksiyasi unda to‘liq aks etmaydi. Ba’zan oddiy ko‘ringan jumla aynan urg‘u yoki pauza tufayli kinoyaviy, ogohlantiruvchi yoxud qat’iy ma’no kasb etishi mumkinligi sababli, tarjimon bunday o‘rinlarda jumlaning faqat yozma shakliga tayansa, muallif ko‘zlagan ohangning bir qismi tarjimada yo‘qolishi ehtimoli bor. Tarjimani matn va diskurs doirasida o‘rganishga asoslangan zamonaviy qarashlarda ham alohida birlikni kengroq kommunikativ vaziyatdan uzib talqin qilmaslik lozimligi qayd etiladi.[6] Shundan kelib chiqib, TED nutqlarini o‘zbek tiliga o‘girishda so‘zma-so‘z muvofiqlikni yagona mezon sifatida olish maqsadga mu-vofiq emas, zero, asl matnga sodiqlik ayrim hollarda so‘z shaklini saqlashdan ko‘ra muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrni o‘zbek tilida tabiiy va aniq ifodalashni talab qiladi. Agar ingliz tilidagi metafora o‘zbekcha nutqda begona eshitilsa, uning mazmunini tabiiyroq ifoda orqali berish, xalqaro termin o‘zbek ilmiy muomalasida allaqachon qaror topgan bo‘lsa, uni asossiz ravishda boshqa birlik bilan almashtirmaslik, muayyan kontekstga bog‘langan tushuncha esa tinglovchiga noma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lsa, uni qisqa izohlash tarjimaning aniqligi bilan ravonligi o‘rtasidagi nisbatni saqlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, B. Geytsning “The Next Outbreak? We’re Not Ready” nutqi ustida olib bo-rilgan kuzatuv shuni anglatadiki, TED materialini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda lug‘aviy muqo-bilni aniqlash ishning dastlabki qismi bo‘lib, tarjimonning asosiy vazifasi ilmiy mazmun, obrazli ifoda va ma’ruzachining tinglovchi bilan muloqot usuli o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘zbek tilida tabiiy saqlashdan iboratdir. Agar terminlar ilmiy aniqligini yo‘qotmasa, metafora va qiyoslar o‘zbek tilining ifoda odatlariga mos tushsa, jumlalar esa inglizcha sintaktik qurilmaning soyasida qolmay, o‘zbek nutqining tabiiy oqimiga bo‘ysunsa, tar-jima asl chiqishning mazmunini yetkazish bilangina kifoyalanmay, uning jonli va ishontiruvchi ohangini ham tinglovchiga olib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Baker, M. (2011). In other words: A coursebook on translation (2nd ed.). Routledge.

[2] Gates, B. (2015, March). The next outbreak? We’re not ready [Video]. TED Conferences.

[3] Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.

[4] Munday, J., Ramos Pinto, S., & Blakesley, J. (2022). Introducing translation studies: Theories and applications (5th ed.). Routledge.